



HUQUQIY TARG'IBOTNING ICHKI ISHLAR ORGANLARI FAOLIYATIDAGI AHAMIYATI

Yuldashev Iqboljon Raximovich

O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi katta o'qituvchisi, yuridik
fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Abduraupova Nargiza Nosirjon qizi

O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi kursanti
<https://doi.org/10.5281/zenodo.17686070>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 10-noyabr 2025 yil
Ma'qullandi: 15-noyabr 2025 yil
Nashr qilindi: 22-noyabr 2025 yil

KEYWORDS

*Huquq, huquqiy ong, huquqiy
madaniyat, huquqiy targ'ibot,
islohot, siyosat, fuqarolik
jamiyati, jamiyat mafaati, g'oya,
huquqiy ta'lim-tarbiya, davlat
organlari, sud, prokuratura,
huquqiy davlat, mahalla, ta'lim
muassasasi, huquq normasi,
huquq ijodkorligi, rivojlanish
istiqbollari.*

ABSTRACT

*Mazkur maqolada ichki ishlar organlarida huquqiy
targ'ibot sohasidagi amalga oshirilayotgan islohotlar
haqidagi fikrlar ilmiy jihatdan tahlil etilgan. Huquqiy
targ'ibotning asosiy maqsadlari, jumladan, huquqiy
madaniyatni rivojlantirish, huquqni hurmat qilishni
targ'ib qilish va fuqarolarning huquqiy bilimlarini
oshirishga qaratilganligi ta'kidlanadi. Ichki ishlar
organlarining bu sohadagi roli, jinoyatchilikni
kamaytirish, yoshlarni huquqiy savodxon qilish va
fuqarolar bilan aloqalarni mustahkamlashda muhim
o'rin tutadi.*

Mamlakatimizda mustaqillikning dastlabki yillaridan boshlab huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatini barpo etish maqsadida xalqimizning huquqiy bilimi va madaniyatini yuksaltirish, huquqshunos kadrlar tayyorlash tizimini tubdan yaxshilash, qabul qilingan qonun va qarorlarning mazmun-mohiyatini aholiga chuqur anglatishga katta e'tibor qaratilib kelinmoqda. O'zbekistonda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirib borish qonun ustuvorligini ta'minlash va qonuniylilikni mustahkamlashning eng muhim shartlaridan biridir.

Zero, "Yoshlarimizning mustaqil fikrlaydigan, yuksak intellektual va ma'naviy salohiyatga ega bo'lib, dunyo miqyosida o'z tengdoshlariga hech qaysi sohada bo'sh kelmaydigan insonlar bo'lib kamol topishi, baxtli bo'lishi uchun davlatimiz va jamiyatimizning bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etamiz", – deb ta'kidlanishi huquq ta'limi oldiga mamlakatimiz yoshlarini o'z haq-huquqlarini anglaydigan erkin hamda savodli bayon qila oladigan mustaqil fikr sohiblari etib tarbiyalashdek dolzarb vazifalarni qo'yadi.

Bu yo'nalishdagi ishlarni muvofiqlashtirish maqsadida 2019-yil 9-yanvarda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish tizimini tubdan takomillashtirish to'g'risida"gi PF-5618-sonli farmoni qabul qilindi. Farmonda aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirishga doir ishlar samaradorligini yanada oshirish, fuqarolarning ijtimoiy-siyosiy o'zgarishlar bilan uyg'un ravishda huquqiy bilimlarini oshirib borishning zamonaviy usullarini joriy etish, shuningdek, aholini, ayniqsa, yoshlarni zararli

axborotlardan himoya qilish bo'yicha mustahkam huquqiy immunitetni shakllantirish ko'zda tutilgan. Mazkur Farmonning ijrosini ta'minlash natijasida:

- a) jamiyatda huquqiy madaniyatni monitoring qilish va baholash tizimi joriy etildi;
- b) aholi huquqiy savodxonlik darajasining minimal talablari ishlab chiqildi;
- c) fuqaro, davlat hamda jamiyatning o'zaro munosabatlarida aholining huquqiy madaniyati va ijtimoiy faolligini yuksaltirish, shaxsiy ehtiyojlar hamda jamiyat ehtiyojlari o'rtasidagi muvozanatning saqlanishini ta'minlash borasida yangicha yondashuvlar paydo bo'ldi;
- d) bolalar va yoshlar ongiga ilk huquqiy tushunchalarni hamda odob-axloq qoidalarini izchil singdirib borish, huquqiy ta'lim-tarbiyani uzviy va tizimli olib borish yo'nalishida yangi loyihalar ishlab chiqildi

Targ'ibot (arab, qiziqtirish, tarqatish) – keng ma'noda, ijtimoiy faoliyatning alohida turi bo'lib, aholining ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish maksadida ilmiy, badiiy, ijtimoiy-siyosiy, milliy g'oya va qadriyatlarni targ'ib etishdir. Targ'ibot jarayonida fan, san'at, siyosat va mafkura yutuqlari keng ommalashtiriladi, boyitiladi va yanada rivojlantiriladi. Tor ma'noda, mafkura va siyosatni targ'ib etishga qaratilgan faoliyat. Targ'ibot ilmiylik, konkretlik, obyektivlik, ijtimoiy xayot bilan chambarchas bog'liqlik tamoyillariga asoslanishi, tashkiliy jihatdan uyushgan bo'lishi lozim. Targ'ibot (lot. propaganda - tarqatilishi kerak bo'lgan ma'lumot) - og'zaki yoki ommaviy axborot vositalari orqali muayyan g'oyalarning jamoatchilik ongida ommalashtirishga yo'naltirilgan faoliyatdir.

Huquqiy targ'ibot – muayyan guruh, millat, jamiyat, irq, etnik guruh, hudud xalqlariga huquqiy tartib va tamoyillarni singdirishga qaratilgan tizimli va maqsadli faoliyatni ifodalaydigan jarayon hisoblanadi.

Huquqiy targ'ibot – jamiyatda huquqiy madaniyatni oshirish, fuqarolarga o'z huquq va majburiyatlarini tushuntirish, qonunlarga hurmatni rivojlantirish va huquqni buzish holatlarini kamaytirish maqsadida amalga oshiriladigan tizimli faoliyatdir. Huquqiy targ'ibotning ichki ishlar organlari faoliyatidagi ahamiyati, shuningdek, jamiyatda huquqiy ongni shakllantirish va huquqiy tartibni mustahkamlashda muhim rol o'ynaydi. Ichki ishlar organlarida xodimlarning hamda jamoatchilikning huquqiy ongi va madaniyatini yuksaltirishda asosiy vazifalar quyidagilardan iborat:

- amalga oshirilayotgan islohotlar, qabul qilinayotgan normativ-huquqiy hujjatlarning mazmun-mohiyatini izchil etkazish tizimini shakllantirish, **"Jamiyatda qonunlarga hurmat ruhini qaror toptirish – demokratik huquqiy davlat qurishning garovidir!"** degan hayotiy g'oyani singdirish;
- ichki ishlar organlari sohasida amalga oshirilayotgan islohotlarga daxldorlik va vatanparvarlik hissini kuchaytirish, yuqori, o'rta va quyi bo'g'indagi bo'linmalar xodimlari o'rtasida **"Xalq manfaatlariga xizmat qilish"** g'oyasini keng targ'ib qilish;
- targ'ibot tadbirlarini amalga oshirishda innovatsion usullardan keng foydalanish bo'yicha rahbar xodimlarning mas'uliyatini kuchaytirish, huquqiy axborot bilan ta'minlashda veb-texnologiyalarni qo'llashni kengaytirish;
- ichki ishlar organlarida amalga oshirilayotgan islohotlar, qabul qilinayotgan qonunchilik hujjatlari va davlat dasturlarining mazmun-mohiyatini muntazam etkazib borish;
- huquqiy-ma'rifiy tadbirlarni xalqimiz tarixi, dini, milliy qadriyatlarini o'rgatish bilan uyg'un holda tashkil etish;

- korrupsiya va boshqa huquqbuzarliklarga nisbatan murosasizlik munosabatini shakllantirish;

- boshqa huquqni muhofaza qiluvchi organlar hamda fuqarolik jamiyati institutlarining manzilli huquqiy targ'ibotni amalga oshirish borasidagi o'zaro hamkorligini mustahkamlash;

- ommaviy axborot vositalarining huquqiy axborot bilan ta'minlashdagi rolini oshirish, huquqiy targ'ibotning innovatsion usullaridan keng foydalanish;

- ichki ishlar organlarida huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish asoslarini chuqur tadqiq etish.

Ichki ishlar vazirligi tizimida huquqiy targ'ibot faoliyatini muvofiqlashtirish Tashkiliy departament Yuridik ta'minlash boshqarmasi Huquqiy targ'ibot va inson huquqlarini himoya qilish bo'limi tomonidan amalga oshiriladi. Ichki ishlar vazirining "O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Tashkiliy departamenti faoliyatini tashkil etish to'g'risida" 2018-yil 7-sentyabrdagi 244-son buyrug'i bilan Yuridik ta'minlash boshqarmasining faoliyati tasdiqlanib, Boshqarmada huquqiy targ'ibot va inson huquqlarini himoya qilish bo'limi faoliyati yo'lga qo'yilgan. Mazkur buyruq bilan Yuridik ta'minlash boshqarmasi huquqiy targ'ibot va inson huquqlarini himoya qilish bo'limi quyidagi vazifalarni amalga oshirishi belgilangan:

- davlat huquqiy siyosatining ichki ishlar organlarida amalga oshirilishini ta'minlash, huquqni qo'llash amaliyotini va huquqiy targ'ibot bo'yicha faoliyatni o'rganish;

- huquqiy targ'ibotni amalga oshirish yuzasidan ichki ishlar organlari faoliyatini muvofiqlashtirish;

- huquqiy targ'ibot masalalari yuzasidan huquqni muhofaza qiluvchi, shuningdek, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, nodavlat notijorat tashkilotlar bilan va xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikni tashkil etish;

- jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirishga doir ishlarda ishtirok etish, shuningdek, qonuniylikni mustahkamlash maqsadida ichki ishlar organlari xodimlari o'rtasida qonun hujjatlarining mazmun-mohiyatini targ'ibot qilinishini tashkil etish;

- normativ-huquqiy xujjatlar fondini kodekslar, qonunlar va ularning sharhlari, axborotnomalar va boshqa huquqiy adabiyotlar bilan ta'minlash choralari ko'rish, Vazirlik rahbariyatiga huquqiy nashrlarga obuna bo'lish haqida takliflar kiritish;

- inson huquqlari va erkinliklarga rioya etilishining holatini tahlil qilish hamda quyi turuvchi tuzilmalar faoliyatini muvofiqlashtirish;

- ichki ishlar organlarining huquqni qo'llash amaliyotidagi mavjud muammolarni o'rganish, tahlil qilish va ularni bartaraf etish choralari to'g'risida takliflar ishlab chiqash;

- davlat huquqiy siyosatining ichki ishlar organlarida amalga oshirilishini ta'minlash;

- ichki ishlar organlarida normativ-huquqiy hujjat loyihalarini tayyorlash masalalari bo'yicha uslubiy qo'llanmalar ishlab chiqish;

- ichki ishlar organlarida normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini tayyorlash va qabul qilish ishlarining ahvolini o'rganish, norma ijodkorligi faoliyatining joriy va istiqbolli rejalari ishlab chiqilishi, amalga oshirilishi hamda bajarilishini nazorat qilishda ishtirok etish.

Huquqiy targ'ibot ichki ishlar organlarining faoliyatida muhim o'rin tutadi. U fuqarolarning huquqiy ongini oshirish, jinoyatchilikning oldini olish, jamiyatda tartib va qonuniylikni ta'minlash, shuningdek ichki ishlar organlarining obro'sini oshirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, huquqiy targ'ibot jamiyatda huquqiy madaniyatni rivojlantirish va

fuqarolarning huquqiy masalalar bo'yicha bilimlarini oshirishga yordam beradi. Ichki ishlar organlarining huquqiy targ'ibot sohasidagi faoliyati jamiyatda tinchlik, barqarorlik va qonun ustuvorligini ta'minlashning muhim omilidir. Huquqiy targ'ibotni yanada samarali tashkil etish va rivojlantirish orqali jamiyatda huquqiy ongni oshirish, fuqarolarning huquq va majburiyatlarini anglashlariga yordam berish mumkin. Bu esa nafaqat ichki ishlar organlarining ish samaradorligini oshiradi, balki jamiyatda tinchlik va barqarorlikni mustahkamlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Ichki ishlar organlarida boshqaruv, nazorat va shaxsiy tarkib bilan ishlashning samarali tizimini joriy etish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida" PQ-3919-sonli 2018-yil 23-avgust
2. Ichki Ishlar Vazirining "Ichki Ishlar Vazirligida tashkiliy departamentni tashkil etish to'g'risida" 244-sonli buyrug'i 2018-yil 7-sentyabr
3. Ichki ishlar organlarida axborot-tahlil ishi: Darslik / A.A.Matchonov, Sh.Sh. Hasanov va boshq. Ma'sul muharrir R.A.Hatamov. – T.: O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi IIV Akademiyasi 2023
4. Rakhimovich Y. I. The Concept of Working Conditions and General Rules of Its Change //JournalNX. – T. 7. – №. 05. – C. 295-298.

INNOVATIVE
ACADEMY